



ABU RAYHON BERUNIY VA UNING MA'MUNIYLAR DAVRIDAGI FAOLIYATI

Otaboyev Rahmonbek Maqsudovich

Urganch davlat universiteti magistranti

hermanvamberi@gmail.com

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p4-162>

ARTICLE INFO

Received: 17th February 2023

Accepted: 26th February 2023

Online: 27th February 2023

KEY WORDS

Beruniy, Ma'mun akademiyasi, riyoziyot, ilmi nujum, Kot, Ray, G'azna, tabobat, fiqh, astronomiya, koordinata.

ABSTRACT

Bu maqola Xorazmshoh Ma'muniylar davrida "Dor -ul hikma va maorif" da ilmiy faoliyat olib borgan ulug' alloma - Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy hayoti va faoliyat jarayonlarining tahliliga bag'ishlangan. Bundan tashqari, olimning dunyo ilm-faniga qo'shgan hissasi yoritib berilgan. Maqola yakunida muallifning keng ilmiylik asoslangan xulosaviy fikr-mulohazalari keltirilgan va tadqiqot mohiyatini ochishga xizmat qiladigan ilmiy manbalarga murojaat qilingan.

KIRISH

Qomusiy bilim sohibi Ma'mun Akademiyasining yetakchi olimi, tashkilotchisi va rahbari bo'lgan al-Beruniy 973-yilning 4-sentyabrida Xorazmning qadimgi poytaxti Kot shahrida tug'ilgan. Uning ismi Muhammad, otasining ismi Ahmad, Beruniy esa uning nisbasi - tahallusi bo'lib "Berun"- shahar tashqarisi, ma'nosini anglatgan. Abu Rayhon-"Rayhonli kishi", uning laqabidir. Abu Rayhon so'zi arabchada "Marhamatli", "Rahmdil" ma'nolarini anglatadi. Beruniy yoshligidan ota-onasidan yetim qolib, mashhur olim Abu Nasr ibn Iroq qo'lida tarbiyalangan va boshlang'ich hamda madrasa ta'limini ona shahri Kotda olib, buyuk olim bo'lib yetishgan.

Beruniy yoshligidan zo'r ishtiyoq va matonat bilan bilim o'rgangan. O'sha davrning mashhur olimi Abu Nasr ibn Iroqdan astronomiya (ilmi nujum) va matematika (riyoziyot) ilmidan dars olib, 17 yoshidan boshlab Kot atrofida dastlabki astronomik kuzatishlarini olib bordi va buning uchun zarur bo'lgan astronomik asboblarni shaxsan o'zi tayyorladi. Olimning dastlabki asarlari Kotda yozildi. "Aldamchilik san'ati, ya'ni yulduzlar hukmidan ogohlantirish kitobi", "Xorazm tarixi"ning dastlabki sahifalari shular jumlasidandir.

Biroq, siyosiy voqealar yuz berayotgan Kotda Beruniy uzoq yashamadi. Xorazmning ikki hukmdori o'rtasida hokimiyat uchun kurash boshlangandan so'ng, 995-yilda, 22 yoshida Tehronning janubida joylashgan Ray shahriga keldi. Bu yerda ko'p olimlar bilan uchrashdi va fikr almashdi. 997-yilda yana Kotga qaytib keldi. O'sha yili Ibn Sino bilan xat orqali tanishib, tabiat falsafasi, fizika, astronomiyaning ayrim masalalari yuzasidan ilmiy munozaralar o'tkazdi. 998-yili Jurjon viloyati amiri Qobus ibn Vashmigir Beruniyni o'z saroyiga taklif qilib, ilmiy ishlariga homiylik qildi. Bu yerda mashhur olim Abu Saxl al-Masihiy bilan do'stlashib, undan matematika, astronomiyaga doir ko'p narsalarni o'rgandi. Masihiy o'zining fizika va



matematikaga doir 12 ta kitobini Beruniyga bag'ishlab yozgan. Beruniy Jurjonda jiddiy ijodiy ish bilan shug'ullandi va mashhur asari "Osor al-boqiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar")ni yozib tugalladi. Bu asar Qobus Vashmigirga bag'ishlangan edi. Olim shunga qadar ham yana 4 ta asarini yozib tugallagan edi..

TADVIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI.

1004- yili Beruniy Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun va ustozlari ibn Iroq taklifiga binoan Xorazmga qaytib keldi. Gurganjda shoh saroyiga taklif etilib, "Ma'mun Akademiyasi"ga rahbar etib tayinlandi. Ushbu vazifadagi osoyishta hayoti 1017-yilgacha davom etdi. Beruniy Gurganjda ilmiy faoliyatini davom ettirib muntazam ravishda astronomik kuzatishlar olib borgan hamda Gurganjning geografik kengligini ilmiy jihatdan aniqlab bergan. 1017-yili Mahmud G'aznaviy Xorazmni istilo qilgach, Beruniy bir guruh olimlar bilan sulton xizmatiga olib ketildi va umrining oxirigacha G'aznada, sulton saroyida ijodiy ish bilan shug'ullandi. Uning saroydagi hayoti dastlabki paytlarda ancha og'ir kechgan bo'lsada, butun kuch - quvvatini ilmiy ishga safarbar etdi va bebaho asarlar yaratdi.

TADVIQOT NATIJALARI

Beruniy astronomiya, geografiya, matematika va tarix fanlari bo'yicha 160 dan ortiq asarlar yozgan. Uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Mineralogiya", "Geodeziya" kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. U o'zining astronomiyaga oid asarlarida Kopernikdan qariyb besh asr muqaddam Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni o'rta asrlarda birinchi bo'lib ilgari surdi.

Beruniy yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi. U 1029 ta yulduzning koordinatlari kattaligi qayd etilgan yulduzlar jadvalini hamda dunyoning geografik kartasini tuzgan. Beruniy yevropalik olimlardan 450 yilcha oldin Amerika qit'asi mavjudligini taxmin qilib, o'z asarlarida bir necha bor yozgan. Beruniyning g'arbiy yarim sharda katta quruqlik borligi to'g'risidagi fikri XV-XVI asrlarda o'z tasdig'ini topdi. Beruniy Yer aylanasini uzunligini o'lchashda yangi usul - matematik usulni ishlab chiqdi. U birinchi bo'lib Yer shari globusini yaratgan. Beruniyning ilmiy va falsafiy ulkan merosi shubhasiz jahon fani va madaniyati xazinasiga qo'shilgan ulkan hissa bo'ldi.

MUHOKAMA

Beruniy faoliyati davomida fanning turli sohalari bo'yicha 160 dan ortiq asarlar yozib qoldirdi. Lekin bizgacha uning katta ko'pchilik asarlari yetib kelmagan. Bundan tashqari, U Xorazm Ma'mun Akademiyasida yuzdan ortiq olimlar faoliyatiga rahbarlik qildi. Shuningdek, Xorazmshohlar saroyida maslahatchi vazifasini ham bajargan va "Ma'mun akademiyasi" ning shuhrat qozonishida o'z hissasini qo'shgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Abu Rayhon Beruniy «Donishmandlar uyi» ga Sharqning barcha viloyatlaridan olimlar, faylasuflar, adib va shoirlarni taklif qildi. Ular o'z vatanlaridagina emas, butun xalifalik mamlakatlarida ma'lum va mashhur allomalar edi. Uning ijodiy faoliyati



«Donishmandlar uyi» tugatilgandan so'ng G'aznada davom etdi. U o'zining bebaho asarlari bilan nafaqat Sharq va Yevropa, balki jaxon fani rivojiga ulkan hissa qo'shdi U 75 yillik umri davomida jahon sivilizatsiyasini jadal rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Buyuk bobokalonimiz Beruniy 440-hijriy yilida, rajab oyining 2-sida, ya'ni 1048-yilning 13-dekabrida, 75 yoshida G'azna shahrida vafot etadi.

References:

1. Sa'dullaev A., Satliqov A. Xorazm Ma'mun akademiyasining tarixiy ildizlari. – Nukus: Qoraqalpog'iston, 2005. –B 50-75.
2. Ozod Masharipov. «Xorazmnoma». 2-qism, Urganch «Xorazm» 2007. –B. 103.
3. Bekmuhammedov Umid « Xorazm va xorazmliklar» 1-qism, Buxoro «Durdona» 2022, B—35.
4. Mahmudov M. Xorazmshoh Ma'mun akademiyasi. – Toshkent: TMI, 2005. – B.60.
5. Н. Норқулов. «Беруний ва Хоразм». Тошкент. «Фан», 1979. –B.25.
6. Azimboy Sadullaev. «Xorazm Ma'mun Akademiyasi». Xiva 2000 y.
7. R. Shamsiddinov, Sh. Karimov, «Vatan tarixi» 1-kitob. – Toshkent – 2010, «Sharq», B—228
8. Matniyozov M. Xorazm tarixi. – Urganch: Xorazm, 2005. –B.45.